



BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH MAZMUNI

Xayitov S. T.

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog'iston filiali mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: talaba - yoshlar, vatan, vatanga muhabbat, vatanparvarlik, vatanparvarlik.

Ключевые слова: студенческая молодежь, Родина, любовь к Родине, патриотизм, военной патриотизм.

Key words: student youth, motherland, love for the motherland, patriotism, military patriotism.

Резюме:

Mazkur maqolada talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi mazmunini takomillashtirish muhim pedagogik muammo sifatida ekanligi ilmiy nazariy jihatda tahlil etilgan hamda mazmuni bayon etilgan.

Резюме:

В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется совершенствование содержания системы воспитания учащихся в духе воинского патриотизма как важная педагогическая проблема и разъясняется ее содержание.

Summary:

This article analyzes the improvement of the content of the system of educating students in the spirit of military patriotism from a scientific and theoretical point of view as an important pedagogical problem and explains its content.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangicha tizimini shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Ommaviy axborot vositalari, internet tizimidagi maълumot oqimlari hamda jarayonlarning sabablari noaniqligi yosh avlodning fikran sobit, axloqan etuk, jismonan baquvvat bo'lishini talab qilmoqda.

O'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik tarbiyasi va etuk fuqaro etib etkazish muammosi davlatimiz va jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Jahondagi siyosiy vaziyatning tez o'zgaruvchanligi, harbiy, ijtimoiy-siyosiy hayotning o'ziga xos tomonlari, davlatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga, yosh avlodni vatan himoyasiga tizimli tayyorlashni talab etmoqda.

Globalizm, - dunyo odami tushunchalari butun bir avlodlarni o'z tarixidan, axloqiy va maъnaviy burchlardan mosuvo qilishga, kelajak haqida qayg'urmaslikka

– umuman insonning shaxs sifatidagi maqomini yo'q qilishga qaratilgan g'oyalarni maълum maълnoda mujassamlashtiradi. [1].

Vatanparvarlik insonning fuqaro hamda muayyan jamiyat aъzosi sifatidagi eng buyuk burchi bo'lib, oilaga sadoqat, kelajakka ishonch, tarixga hurmat, bugungi kuniga eъtibor, atrofdagi insonlar manfaatlarini hisobga olish, haqni nohaqdan ajrata olish kabi xislatlarni jamlaydi. Istalgan qo'shin, jamiyatda vatanparvarlik tuyg'usi kamolga etmas ekan, uning ixtiyoriga eng zamonavy qurol berilganda ham foydasi bo'lmaydi. Shuning uchun ham Vatan himoyasida, avvalo, inson omili etakchi o'rinda turadi. Respublikamiz prezidenti Sh.Mirziyoev o'z nutqlaridan birida maълnaviy-maълrifiy tarbiya o'ta muhim, nozik va hal qiluvchi masala ekanligini taъkidlab, bugungi yoshlar bilan olib boriladigan taълim-tarbiya jarayonida ulardagi vatanparvarlik sifatlarini voyaga etkazishning yangicha tizimini ishlab chiqish vazifalarini kun tartibiga qo'ydilar. Yurtboshimiz bu jarayonda tarixiy anъanalar hamda xorijiy mamlakatlar tajribalari umumlashtirib, zamonaviy ilmiy asosda yurtimizda bolalar va o'smirlarning vatanparvarlik tashkilotlarini tuzish kabi tavsiyalarni berdi. [2].

Yoshlarning harbiy hayot, jismoniy tarbiya bilan bog'liq tadbirlarda ishtirok etishida qog'ozbozlik, yuzakilik va sustkashlikka yo'l qo'yish katta xato ekanligi taъkidlandi, shuning uchun Talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangicha pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha yangicha uslublar ishlab chiqish bugungi ilmiy tadqiqotlarning bosh maqsadiga aylanib ulgurdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi taълimi sohasida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Yangi O'zbekiston strategiyasida» da belgilangan vazifalarning to'laqonli amalga oshirishga erishish ham yoshlarda vatanparvarlik sifatlarini va fidoyilik xususiyatini shakllantirishda muhim omil bo'ladi. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda yoshlarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish va ijtimoiy maydonga vatanparvarlikni targ'ib qilishning samarali mexanizmlari ishlab chiqish ishlari boshlab yuborildi, bu borada texnik va texnologik vositalarning imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish tizimi yo'lga qo'yildi. Misol uchun, yoshlarda fuqarolik pozitsiyasi, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va huquqiy savodxonlikni oshirish shuningdek masъuliyatini shakllantirish maqsadida turli harbiy-sport musobaqalari «Yosh chegarachi», «Yosh qutqaruvchi», «Quvnoq startlar», «Temurbeklar», «To'maris malikalari», «Shunqorlar», «Yosh huquqshunos», «Yosh gvardiyachi», «Yosh saylovchi», «Yosh deputat» tanlovlari hamda «Men ham askar bo'laman» aktsiyalari va ko'rik-tanlovlar o'tkazilmoqda[3]. «Mustaqillik», «Amir Temur», «Jaloliddin Manguberdi» ordenlari, «Jasorat», «Sodiq xizmatlari uchun», «Mardlik» medallari taъsis etildi. Ayniqsa, yoshlarda vatanparvarlik hissini shakllantirishga katta eъtibor qaratilmoqda. Harbiy akademik litseylarga «Temurbeklar maktabi» nomi berilishi fikrimizning yorqin dalilidir.[4]. Yangi O'zbekiston strategiyasida vatanparvarlikni chinakam eъtiqodga aylantirish bilan bog'liq ilmiy muammolarni tadqiq etish zarur ekanligini keltirib chiqaradi.



Ushbu tadqiqot ishlari asosida Talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali ularda fuqarolik burchi, shaxsiy jaobgarlik hissi, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usini, faol hayotiy yo'li va qat'iy e'tiqodini, kasbiy mahoratini shakllantirish maqsad qilindi va bu maqsadni amalga oshirish uchun maxsus usullar vazifalar belgilab olindi. Bu vazifalar orqali Talaba-yoshlarning vatanparvarlik xarakterini rivojlantirish, ona - yurt taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'usini mustahkamlash, ularni o'z kasbiga sadoqatli va har tomonlama etuk kadrlar etib tarbiyalash bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rishimizni taqozo qilmoqda. Shu munosabat bilan ta'lim muassasalari Talaba-yoshlarda vatanparvarlik yo'nalishidagi pedagogik ta'limni tizimli tashkil etish, bu ishlarni faollashtirish va yuksak darajaga ko'tarish talab etiladi. Vatanparvarlik millatchilik sifatida talqin qilinmasligi, vatanni asrab-avaylash har bir fuqaroning konstitutsiyaviy majburiyati ekanligini tushuntirish muhim vazifalardan biridir. Zero, «vatanparvarlik millatchilik emas, balki umuminsoniy tuyg'udir. Frantsuz adibi Vol'ter shunday degan edi: -Vatanga bo'lgan muhabbat meni ajnabiylar yutug'idan ko'z yumishga majbur qilmaydi. Aksincha, vatanga muhabbatim qanchalik kuchli bo'lsa, vatanimni jahondagi boshqa xalqlar yutuqlari bilan shunchalik boyitgim keladi». Demak, o'zligini anglagan, kelajagi xaqida qayg'urgan, tarixiy xotirasi butun, mustaqil fikrlaydigan inson o'z vataniga sotqinlik qilmaydi, balki vatan manfaatini hamma narsadan ulug' tutib, uning uchun jon berishga tayyor bo'ladi. Bu esa Vatan himoyasi chindan ham barchamizning nafaqat vazifamiz, balki sharaffli burchimizga aylanib borayotganidan yaqqol dalolat beradi[4].

Talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarixiy va qadriyatli yondashuv o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bu jarayonda

Talaba-yoshlarning ijtimoiy-psixologik jihatdan ular faoliyatining xarakteri, tafakkuri xususiyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini, yoshiga xos rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirishni talab etadi[5, 121].

Shu bilan birga harbiy tayyorgarlikda harbiy mahoratni takomillashtirib borish uchun bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'lish, dunyoqarashning kengligi, murakkab vaziyatdan chiqib keta olish, g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy sifatlarni egallash, jangovar ruhiy holatga ega bo'lish, harakatlarida onglilik, to'g'rilik, aniqlik, harbiy texnikani qo'llashda zukkolik, zehnilik, ijodkorlik xislatlarini tarkib toptirishda qobiliyati, temperamenti, xarakterli xususiyatlarini hisobga olish, hissiy-irodaviy sobitligini mustahkamlashga, jiplashib harakat qilishga undash kabilarda pedagogik-psixologik jihatdan to'g'ri yondashishda qadriyatlar katta imkoniyatlar yaratadi. Lekin har bir yosh bosqichida shaxsni rivojlanish imkoniyatlari mavjud bo'lib, ularga jismoniy, aqliy, axloqiy ta'sir etishda ana shu imkoniyatlarni hisobga olish zarur bo'ladi. Chunki insonning rivojlanishida umumiylik bilan birga o'ziga xoslik hamma vaqt namoyon bo'ladi. Umumiylik ma'lum yoshga taalluqli bo'lgan xususiyatlarga xos bo'lsa, xususiylik biror shaxsning faqatgina o'ziga xos belgilar,

xususiyatlari boshqalardan farq qiladi. Ana shu o'ziga xoslik individuallik deb ataladi.

Talaba-yoshlarda birinchidan, bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishi, ikkinchidan, nazariy va amaliy tayyorgarlik natijasida intellektual salohiyatni rivojlantirishga psixologik tayyorlash. Psixologik tayyorgarlik – bu Talaba-yoshlarni ijtimoiy-psixologik sifatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya jarayoni. Psixologik sifatlar Talaba-yoshlarni harbiy jarayonga ma'naviy, ruhiy tomondan tayyorlaydi, ongli faoliyat yuritishga yo'llaydi. Chunki Talaba aynan psixik jarayonlar hamda shaxsning sifat o'zgarishlari takomillashib borishi bilan yuzaga chiqadi [5, 234].

Shaxsda vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishda, qator pedagogik ta'bir usullaridan foydalaniladi. Talabada yosh kategoriyalari, ijtimoiy-psixologik mansubligi, jinsi, qiziqish va dunyoqarashi turli bo'lgan yoshlarga bir xil ta'bir etuvchi yagona usulni mavjud emasligi e'tiborga olingan holda, u yoki bu uslubdan foydalanishni bilish muhim omil sanaladi. Vatnparvarlik tarbiyasida ChQBT fanining ham aloxida o'rni mavjud. ChQBT fani dasturi doirasida Talaba yoshlar ertangi kundagi Vatan ximoyachisi uchun zarur bo'lgan qator ko'nikmalarga ega bo'ladi, o'zini ham ruhan, ham jismonan, ham harbiy-texnik jihatdan Qurolli Kuchlar safidagi xizmatga tayyorlab boradi. Shu o'rinda bugungi kundagi ChQBT va vatanparvarlik tarbiyasining o'quv muassasalaridagi xolati haqida alohida gapirish zarur. Maktab ta'lim muassasalarida Talabalarni haqiqiy ma'noda Vatan ximoyasiga tayyorlash, ularda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, ko'p jihatdan fanning huquqiy-me'yoriy, o'quv va ilmiy asoslarini to'g'ri yo'lga qo'yilganligiga, fan dasturi, fanning Nizomi, yo'riqnoma xujjatlarini to'g'ri va mantiqiy echimlarga asosan ishlab chiqilganligiga, ularni hayotiylikligiga, qolaversa muassasadagi o'quv-moddiy bazaning xolatining qay darajada ekanligiga bog'liq. Hozirgi kunda ChQBT fanining o'qitilishida qator kamchilik va nomutanosibliklar mavjudligi sir emas. ChQBT fanini maktablarda o'tkazilayotganligiga qariyb besh yil bo'lishiga qaramay fan dasturi bo'yicha muqim bir qarorga kelina olinmayotganligi, ya'ni hali ham fan dasturining yagona tasdiqlangan namunasining yo'qligi, fan Nizomini 2014-yilda tasdiqlangan bo'lishiga qaramasdan uning talablari to'laligicha bajarilmayotganligi, Nizomning ayrim bandlarining o'zgartirish zarurati tufayli kelib chiqayotgan tushunmovchiliklar, o'quv moddiy bazani shakllantirish bo'yicha yagona yo'riqnomaning mavjud emasligi, vatanparvarlik tarbiyasi doirasida o'tkazilayotgan harbiy sport musobaqalari nizomlaridagi echimini kutayotgan kamchiliklar, ularning son jihatdan ko'pligi, (Masalan: - «Yosh chegarachi», «Yosh qutqaruvchi», «Quvnoq startlar», «Temurbeklar», «To'maris malikalari», «Shunqorlar», «Yosh huquqshunos», «Yosh saylovchi», «Yosh deputat» tanlovlari hamda «Men ham askar bo'laman») bo'yicha kelib chiqayotgan tushunmovchiliklar shular jumlasidandir. ChQBT fani va vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini oshirish maqsadida bugun quyidagi ishlarni amalga oshirish zarurati paydo bo'lmoqda:



- ChQBT fani dasturini mukammal tarzda ishlab chiqish, undagi kamchilik va muammolarni bartaraf qilish; - Fan Nizomi talablarini bugungi kun talablaridan kelib chiqib o'zgartirish; - O'quv-moddiy bazani shakllantirish va takomillashtirish bo'yicha yagona yo'riqnomani ishlab chiqish; - Harbiy sport musobaqalari Nizomlari talablarini maktablar va ChQBT fani o'qitiladigan boshqa ta'lim muassasalari imkoniyati va moddiy bazasi talablaridan kelib chiqib o'zgartirish, ularni o'tkazish jarayonini va muddatlarini e'tiborga olgan holda optimallashtirish; - Zarur o'quv adabiyotlari va darsliklarni mukammal ravishda yaratish; - Zarur moddiy bazani shakllantirish; - O'qituvchilar malakasini oshirish tizimini zamon talablari asosida takomillashtirish. Zero malakatimiz chegaralarining mustahkamligi, halqimiz tinchligi, iqtisodiyotimizning barqarorigi, eng muqaddas ne'mat hisoblangan tinchlikni ta'minlash, bugungi kundagi Qurolli Kuchlarimizning qudrati va salohiyatiga bog'liq ekanligini barchamiz bugun guvohi bo'lib turibmiz [6, 73].

Talabalarda vatanparvarlik va milliy g'oya tushunchalarini shakllantirishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz:

-yosh va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, Talabalarning vatan va vatanparvarlik mavzusiga bo'lgan qiziqishlarini o'rganish;

-Talabalar dunyoqarashiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

-Talabalar qiziqish bilan ishtirok etadigan tadbirlarni aniqlash;

-tadbir stsenariylarini tuzishda Talabalarni jalb qiladigan tomonlarga alohida e'tibor qaratish;

-tarbiyaviy tadbirlar mazmunini vatanga e'tiqod mavzusi bilan boyitish orqali Talabalarda vatanga e'tiqodni shakllantirishga erishish.

-Talabalari ongiga milliy qadriyatlar mazmunida ifoda etilgan vatanparvarlik g'oyalarini singdirish, ularning vatanga e'tiqodini aniqlashga erishish.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston 2017 .
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni “Ta'lim to'g'risida” O'RQ-637, 2020 yil 23 sentyabr`.
3. O'smirlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash xamda o'zbekiston respublikasi qurolli kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 iyundagi PQ-4375-son qarori.
4. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
5. Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'R PQ-92 sonli. 19.01.2022 yil.
6. Usmonov K. O'zbek xalqi ma'naviy-axloqiy merosida vatanparvarlik g'oyalarining talqini: Fals. dok. (PhD) dissertatsiyasi. -Toshkent, 2017. – B.161.
7. Xaydaraliev.X.X. “Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirish” doktorlik diss. Namangan.: 2021 y.
8. G'oziev E. Psixologiya. Yosh davrlari va pedagogika psixologiyasi. – Nizomiy nomidagi TDPU, 2004.